



## SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 14 - yanvar

10-9-124-Q/23

Guliston tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda­gi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-sonli hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2023-yil 12-yanvardagi 5-9-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda­gi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-sonli qarori va Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrda­gi “2023-yildagi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman, shahar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlari­ning prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-43-173-9-0-K/22-sonli hamda viloyat hokimining 2023-yil 12-yanvardagi 5-9-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda­gi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-sonli (bundan buyon - Qaror) hamda viloyat hokimining 2023-yil 12-yanvardagi 5-9-0-Q/23-sonli qarorlari ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Guliston tumani mahalliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari 32 543 987.0 ming so‘m, xarajatlari 89 679 715.0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo

transfertlar 57 135 728,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Guliston tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun Guliston tuman mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlar prognozlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun Guliston tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini byudjet tashkilotlari va taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-3a ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun Guliston tuman byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Guliston tumanida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2023-yil uchun avtotransport yig‘imlarining stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. 2023-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar meyorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. 2023-yil uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. 2023-yil uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yoritish uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. 2023-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. 2023-yil uchun Guliston tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 823 792,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

15. 2023-yil uchun Guliston tuman byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 598 893,0 ming so'mga belgilansin.

16. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig'i;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat daromadiga o‘tkazilgan mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha, tabiiy gaz uchun qat‘iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishli 2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra Sirdaryo viloyati aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-yil moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

18. Guliston tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Mamarasulov), tuman Moliya bo‘limi (R.Suvonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Umurov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

19. Tumani Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Umurov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida

fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

20. Guliston tumani hokimining birinchi o'rinbosari (U.Mamarasulov), tuman Moliya bo'limi (R.Suvonov):

Guliston tumani byudjetlari tasdiqlangan xarajatlarning (zaxira jamg'armasi mablag'larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag'lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo'shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, Xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo'limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

21. Mazkur qaror "Guliston hayoti" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda Guliston tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Mamarasulov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**S.Begimkulov**

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

### 2023-yil uchun Guliston tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

Daromad turlari	Summa ming so‘m
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 956 113
Aylanmadan soliq	4 424 663
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat‘iy belgilangan daromad solig‘i	493 819
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 901 950
Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	101 961
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 053 828
Ijara to‘lovlar	119 055
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	127 385
Yuridik shaxslar yer solig‘i	421 823
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	516 910
Jami	<b>20 117 507</b>
Mobil aloqaga aksiz solig‘i, alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	<b>12 426 480</b>
Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	5 027 150
Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 156 350
Tamaki mahsulotlar	5 242 980
<b>JAMI DAROMAD</b>	<b>32 543 987</b>



Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**2023-yil uchun Guliston tumani bo'yicha mahalliy byudjet daromadlari va  
xarajatlari reja ko'rsatkichlari**

<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
Guliston tumani	32.543.987,0	89.679.715,0

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
3-ilova

## Tuman mahalliy budjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

*ming so'mda*

Ko'rsatkichlar		Guliston tumani
	<b>Xarajatlar - jami</b>	<b>89 679 715</b>
<b>1.</b>	<b>Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami</b>	<b>54 462 755</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
1.1	Maorif	13 821 680
	- maktabgacha ta'lim	6 723 471
	- umumiy ta'lim	7 098 209
	<i>shundan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushlik berish xarajatlari</i>	
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog'liqni saqlash	1 575 063
	<i>shu jumladan: Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali moliyalashtiriladigani</i>	0
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	0
1.4	Madaniyat	1 325 725
1.5	Sport	3 140 980
1.6	Fan	0
1.7	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar	34 499 043
1.8	Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash	
1.9	Davlat mukofotlarini to'lash bo'yicha xarajatlar	
1.10	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090

1.11	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda va bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha hisobga olinadigan yo'lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash (jumladan PQ-5260 xarajatlari)	
1.12	Shahar passajir transportida ba'zi kategoriyadagi kishilarning bepul yurishlarini byudjetdan qoplash	
1.13	Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar va bagajni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan shahar yo'lovchi tashish transporti tashuvchilari ko'radigan zararlarni qoplash shuningdek shahar pasajir transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha hisobga olinadigan yo'lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	
1.14	Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash	0
1.15	1941-1945 yillardagi urush faxriylari va unga tenglashtirilgan shaxslar uchun asosiy turdagi ozik-ovkat maxsulotlari va gigiyena tovarlarini bepul berish xarajatlari	0
1.16	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	81 174
<b>2.</b>	<b>Iqtisodiyotga xarajatlar</b>	<b>12 728 553</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
2.1	<i>Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari</i>	3 000 000
2.1	Fermerlar xo'jaliklari buxgalteriya markazlari	613 989
2.2	O'simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	0
2.3	Obodonlashtirish	5 691 111
2.4	Ko'p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	0
2.5	Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	
2.6	Maxsus ekspluatasiya-montaj xarajatlari	0
2.7	Ko'p kvartirali uylardagi lift uskunalari ta'mirlash va yangilash	
2.8	"Toza hudud" Davlat unitar korxonasi	
2.9	Xo'jayli va Chalish suv yo'li texnik uchastkasi	
2.10	Issiqlik ta'minot korxonalariga subsidiyalar	
2.11	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	1 707 856
2.12	O'rmon xo'jaligi tashkilotlari	0
2.13	Davlat ekologiya qo'mitasining hududiy boshqarmalari	0

2.14	Chigirtka va qizil kapalakka qarshi profilaktika va kurashish radiologik va toksikologik kuzatuvlarni olib borish, tuproq hamda qishloq xo'jalik mahsulotlaridagi og'ir metall tuzlari va pestisidlar cho'kindi qoldiqlari, to'plangan radionuklidlarni tahlil qilish bo'yicha chora-tadbirlar	
2.15	Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari	0
2.16	Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining xududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari	0
2.17	Veterinariya qo'mitasi	1 124 734
2.18	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	0
2.16	Umum foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va ekspluatasiya xarajatlari	
2.19	Avtobus yo'nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	0
2.20	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	590 863
<b>3.</b>	<b>Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar</b>	<b>0</b>
3.1	tuman va shahar markazlarini obodonlashtirish	
3.2	Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	
3.3	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.4	Umumta'lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.5	Sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.5	Sport muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	
3.6	Meliorasiya ob'yektlari	
3.7	Avtomobil yo'llari	
3.8	Oliy ta'lim	
3.7	Ichimlik suvi va kanalizasiya	
3.10	Boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag'lar	
3.8	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqsimlanadigan mablag'lar	
3.9	«Obod qishloq» va «Obod maxalla» dasturlarining xarajatlari	
<b>4.</b>	<b>Davlat boshqaruv organlarini saqlash</b>	<b>12 845 481</b>
<b>5.</b>	<b>Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash</b>	<b>2 342 447</b>

<b>6.</b>	<b>Zahira jamg'armasi</b>	<b>823 792</b>
<b>7.</b>	<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</b>	<b>6 476 687</b>
<b>8.</b>	<b>Boshqa xarajatlar</b>	<b>0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
8.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
8.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	
8.3	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	0
8.4	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari	
8.5	Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag'larini qaytarish xarajatlari	

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
4-ilova

## Tuman mahalliy byudjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori
<b>Xarajatlar miqdori, Jami</b>		<b>89 679 715,2</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	
	Zahira jamg'armasi	<b>823 792,0</b>
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash	<b>590 863,0</b>
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	<b>6 476 687,0</b>
	Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pullari	<b>34 499 043,0</b>
<b>1</b>	<b>Xalq ta'limi bo'limi</b>	<b>5 859 289,4</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 859 289,4
<b>2</b>	<b>Maktabgacha ta'lim bo'limi</b>	<b>6 723 471,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 723 471,0
<b>3</b>	<b>Tuman sanitariya va epidemiologik osoishtalik markazi</b>	<b>1 575 063,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 575 063,0
<b>4</b>	<b>Madaniyat bo'limi</b>	<b>2 564 644,8</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	Saroylar va madaniyat uylari, klublar va klub tipidagi muassasalar	576 287,0
	Boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar va tadbirlar	259 868,0
	Madaniyat bo'limi apparat	<b>229 964,0</b>
	Bolalar musiqa va san'at maktabi	1 238 919,8
	Axborot kutubxona markazi	489 570,0
<b>5</b>	<b>Turizm va sport bo'limi</b>	<b>3 140 980,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 140 980,0
<b>6</b>	<b>Qishloq xo'jaligi bo'limi</b>	<b>1 114 755,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	Qishloq xo'jaligi bo'limi	500 766,0

	Fermer xo'jaliklari buxgalteriya markazi	613 989,0
<b>7</b>	<b>Tuman irrigatsiya bo'limi</b>	<b>1 707 856,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 707 856,0
<b>8</b>	<b>Moliya bo'limi</b>	<b>1 177 867,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 177 867,0
	Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga transfertlar	
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga transfertlar	
<b>9</b>	<b>Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi</b>	<b>1 124 734,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 124 734,0
<b>10</b>	<b>Bandlik va mexnat munosabatlari bo'limi</b>	<b>766 047,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	766 047,0
<b>11</b>	<b>Tuman hokimligi</b>	<b>5 869 245,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	<i>Tuman hokimligini saqlash xarajatlari</i>	2 315 247,0
	<i>Mahallabay hokim yordamchilari</i>	2 573 607,0
	<i>Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash</i>	590 863,0
	<i>Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari</i>	226 614,0
	<i>Tuman Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari</i>	143 824,0
	<i>Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"</i>	19 090,0
<b>12</b>	<b>Yoshlar ishlari agentligi</b>	<b>2 690 620,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 690 620,0
<b>13</b>	<b>Oila va xotin-qizlar bo'limi</b>	<b>1 585 099,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 585 099,0
	<i>Ijtimoiy ko'nikma markazlari xarajatlari</i>	<b>81 174,0</b>
<b>14</b>	<b>Obodonlashtirish bo'limini saqlash xarajatlari</b>	<b>8 691 111,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 691 111,0
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	3 000 000,0
<b>15</b>	<b>Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limlari saqlash xarajatlari</b>	<b>2 978 273,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	635 826,0
	<i>Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saqlash xarajatlari MFYlar</i>	1 983 448,0
	<i>Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saqlash xarajatlari QFYlar</i>	358 999,0

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
5-ilova

**Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar  
miqdorlari**

ming so'mda

<b>Tuman nomi</b>	<b>Tartibga soluvchi transfert miqdori</b>
Guliston tumani	57.135.728,0



Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
6-ilova

**2023-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

ming so'mda

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda
<b>1.</b>	<b>Uy-joylar:</b>		
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	4.000
	noturar joy		7.000
<b>2</b>	<b>Avtomobil transporti:</b>		
	yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	575.000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1.150.000

**Izoh:** Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
7-ilova

**2023-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari**

ming so'mda

<b>Yig'implarning turlari</b>	<b>Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)</b>
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	700.000
Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig'im	350.000

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
8-ilova

### 2023-yil uchun avtotransport yig'irlarining stavkalari

ming so'mda

T/r	Yig'irlar va to'lovlar turlari	Yig'irlar stavkalari
<b>I</b>	<b>Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'irlar</b>	<b>AQSh dollarida</b>
1	O'zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig'im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2 — 5 bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'irlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im	300
4	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig'irlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
<b>II</b>	<b>Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im</b>	
1	Yangi hamda foydalanishda bo'lgan avtotransport vositalari bo'yicha	xarid qilish narxining 1 foizi

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to'lov undirila.

2. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig'im undirilad.

3. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'irlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo'llanila

4. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
9-ilova

**2023-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari**

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol- mulk solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qar'ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to'lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan daromad solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
1	Guliston tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
10-ilova

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	yer solig'i stavkasi 2023 yil uchun (ming.so'm)
1	Zarbdor MFY	1	24 000,0
2	Ishonch MFY	1	24 000,0
3	Yulduz MFY	1	24 000,0
4	Mevazor MFY	1	24 000,0
5	Do'stlik MFY	1	24 000,0
6	Ahillik MFY	1	24 000,0
7	Ibrat MFY	1	24 000,0
8	A.Yassaviy MFY	1	24 000,0
9	Beshbuloq QFY	1	24 000,0
10	Oltin vodiy MFY	1	24 000,0
11	Furqat MFY	1	24 000,0
12	Navoiy MFY	0,9	21 600,0
13	Birlashgan MFY	0,9	21 600,0
14	Mustaqillik MFY	0,9	21 600,0
15	Sohilobod QFY	0,9	21 600,0
16	Sohil MFY	0,9	21 600,0
17	Terakzor MFY	0,9	21 600,0
18	Boyovut MFY	0,9	21 600,0
19	Sharq haqiqati MFY	0,9	21 600,0
20	Oq oltin MFY	0,9	21 600,0
21	Tajribakor MFY	0,9	21 600,0
22	X.Olimjon MFY	0,9	21 600,0
23	Baxmal MFY	0,9	21 600,0
24	Soyibobod QFY	0,9	21 600,0
25	Chortoq MFY	0,9	21 600,0
26	Inoqlik MFY	0,9	21 600,0

**Izoh:** Tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
11-ilova

**Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

*so'mda*

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	yer solig'i stavkasi 2023 yil uchun (so'mda)
1	Zarbdor MFY	1	192,1
2	Ishonch MFY	1	192,1
3	Yulduz MFY	1	192,1
4	Mevazor MFY	1	192,1
5	Do'stlik MFY	1	192,1
6	Ahillik MFY	1	192,1
7	Ibrat MFY	1	192,1
8	A.Yassaviy MFY	1	192,1
9	Beshbuloq QFY	1	192,1
10	Oltin vodiy MFY	0,9	172,9
11	Furqat MFY	0,9	172,9
12	Navoiy MFY	0,9	172,9
13	Birlashgan MFY	0,9	172,9
14	Mustaqillik MFY	0,9	172,9
15	Sohilobod QFY	0,9	172,9
16	Sohil MFY	0,8	153,7
17	Terakzor MFY	0,8	153,7
18	Boyovut MFY	0,8	153,7
19	Sharq haqiqati MFY	0,8	153,7
20	Oq oltin MFY	0,8	153,7
21	Tajribakor MFY	0,8	153,7
22	X.Olimjon MFY	0,8	153,7
23	Baxmal MFY	0,8	153,7
24	Soyibobod QFY	0,8	153,7
25	Chortoq MFY	0,8	153,7
26	Inoqlik MFY	0,8	153,7

**Izoh:** Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Guliston tuman hokimining  
2023 yil 14 yanvardagi  
10-9-124-Q/23-son qaroriga  
12-ilova

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha belgilangan minimal  
miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar**

*ming so'mda*

<b>T/r</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)</b>	<b>Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2023 yil uchun (ming.so'm)</b>
<b>1</b>	<b>Guliston tumani</b>	<b>0,7</b>	<b>700,0</b>